



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2026
1-сон



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 yil, 1-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008 yil 31 dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e‘tirof etilgan

Tahririyat a‘zolari:

Mas‘ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardaev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardaeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay‘ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay‘ati raisi o‘rinbosari:

M.Q.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Tahrir hay‘ati a‘zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Pardayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

Farrux Shadiyorovich Shanazarov Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitaliga ta’siri va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi funksiyalari	80
Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li Muxiddinov Erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish bo‘yicha xorij tajribasidan foydalanish	83
Behzod Berkinbayevich Qarshiyev O‘zbekistonda pullik tibbiy xizmatlar rivojlanishi	89
Akmal Ahtamovich Nizamov Yangi integratsiyalashgan tarmoqli-analitik model asosida logistik xizmatlarini optimallashtirish	95
TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Шухрат Хасанович Саттаров Современные тенденции и перспективы развития туризма в условиях цифровой экономики	100
Дилафруз Каршиевна Усманова Особенности применения форсайт-технологий в повышении конкурентоспособности национального туризма	104
Diyora Istamovna Ochilova, Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Turistik xizmatlar nomoddiyligi va iste’molchi tajribasi: sifat hamda qiymatga asoslangan baholash	110
Оқила Сатимбаева Элликқалға туманида туризмнинг ривожлантириш имкониятлари	114
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayhona Sadriddinovna Amriddinova Mijozni ushlab qolish va yangi mijoz jalb qilishda sodiqlik dasturining o‘rni (Hilton Worldwide misolida)	118
Shohista Bobobekovna Toyirova Tog‘li hududlarda ekologik turizmni rivojlantirishda jahon tajribalari	123
MENEJMENT VA MARKETING	
Muhitdin Aynakulov Sayyohlar temperamentiga asoslangan sayyohlik infratuzilmasini tabaqalashtirilgan holda rejalashtirish modeli	128
Diyor Haqberdiyevich Xolmamatov Ulgurji savdoda marketing logistikasi strategiyasidan foydalanish	130
Xilola Nematovna Ochilova Ijtimoiy tarmoqlarda raqamli biznesni boshqarishning mohiyati va ahamiyati	135
Камилла Бахромовна Суюнова Обеспечение маркетинговой прозрачности бизнеса через цифровой аудит на онлайн-рынках	139
Sanjarbek Komiljon o‘g‘li Boyjigitov Iste’molchi xulq-atvorini tahlil qilishda Engel-Kollat-Blackwell modelidan foydalanish imkoniyatlari	142
Ашур Али Рустам угли Латипов, Паризода Раджаб кизи Алибекова Развитие сравнительного менеджмента за рубежом: кризис универсальной модели и вызов азиатских практик	146
Sadulla Shodiyevich Urazov Liderlikka xulq-atvor yondashuvining nazariy konsepsiyalari va boshqaruv tizimidagi o‘rni	150

- Брю / Пер. с англ. - М.: Республика,1995. – 425 с.
5. Yankovsky N.A. Management with Enterprise at World Markets: Macro- and Microlevels. – Donetsk: Donbass National University, 2004. – 398 pp.
 6. Shumpeter G. Economy Development Theory// G. Shumpeter: translation from Yerman. – М.: Progress, 1982. – 455 pp.
 7. Hayek F.A. Cognition, Competition and Freedom // F.A. Hayek. – SPb.: Pnevma, 1999. – 132 pp.
 8. Абалонин С.М. Конкурентоспособность транспортных услуг. М.: ИКЦ «Академкнига», 2004. 172с.

<p>Дж.Хайдаров</p> <p>Методические подходы к оценке конкурентоспособности транспортных услуг</p> <p>Аннотация. В данной статье освещены развитие конкуренции на рынке автотранспортных услуг и ресурсы повышения конкурентоспособности предприятия, которые сегодня имеют практическое значение для участников транспортной инфраструктуры и продажи услуг. Целью статьи является изучение научных разработок по оценке конкурентоспособности транспортных услуг и определение факторов конкурентоспособности автотранспортного предприятия.</p> <p>Ключевые слова: автотранспортные услуги, качество, конкурентоспособность, критерий, рентабельность, управление, цена.</p>	<p>J.Haydarov</p> <p>Methodological approaches to assessing the competitiveness of transportation services</p> <p>Abstract. In this article, the development of competition in the market of motor transport services and the resources for increasing the competitiveness of the enterprise are highlighted, which are of practical importance for the participants in the transport infrastructure and sale of services today. The article aims to study the scientific developments on the evaluation of the competitiveness of transport services and to determine the factors of the competitiveness of the motor transport enterprise.</p> <p>Keywords: motor transport services, quality, competitiveness, criterion, profitability, control, price.</p>
---	---

ORCID: 0009-0003-4377-2086

Farrux Shadiyorovich Shanazarov – SamISI mustaqil izlanuvchi

IJTIMOYIY XIZMATLARNING INSON KAPITALIGA TA’SIRI VA IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI FUNKSIYALARI

<p>Annotatsiya. Maqolada ijtimoiy xizmatlarning inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishdagi o’rni hamda ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta’siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ta’lim, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlik xizmatlarining inson kapitali sifat ko’rsatkichlariga ta’siri ochib berilgan. Shuningdek, O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda yoritilib, ularning iqtisodiy ahamiyati asoslab berilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: ijtimoiy xizmatlar, inson kapitali, barqaror rivojlanish, ijtimoiy siyosat, iqtisodiy o‘shish, yashil va innovasion iqtisodiyot.</p>

Kirish. Ijtimoiy xizmatlar aholining hayot sifati va farovonligini oshirishda, shuningdek jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim institutsional omil hisoblanadi. Ular inson kapitalini rivojlantirish orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish, ijtimoiy integratsiyani kuchaytirish va iqtisodiy o‘shish uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Ilmiy nuqtai nazardan, ijtimoiy xizmatlar inson kapitalining asosiy tarkibiy qismlari — sog’liq, bilim, kasbiy malaka va ijtimoiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ta’lim va sog’liqni saqlash xizmatlari inson kapitalining bazaviy asosini shakllantirsa, ijtimoiy himoya va reabilitatsiya xizmatlari aholining ijtimoiy xavf-xatarlarga barqarorligini oshiradi va mehnat bozorida uzluksiz ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ijtimoiy xizmatlar orqali kam ta’minlangan va zaif ijtimoiy qatlamlarni qo‘llab-quvvatlash inson kapitalidan samarali foydalanish imkonini yaratib, inklyuziv iqtisodiy o‘shishni ta’minlaydi. Shu bois, ijtimoiy xizmatlarga yo‘naltirilgan investitsiyalar uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishning strategik omili sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston iqtisodiyoti ijtimoiy yo‘naltirilgan bo‘lib, unda ijtimoiy xizmatlar shakllanishi va rivojlanishi davlat siyosati, iqtisodiy imkoniyatlar va institutsional islohotlar bilan uzviy

bog‘liq holda kechib kelmoqda. Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitaliga ta’sirini chuqur tahlil qilish uchun ularning shakllanishi va rivojlanishini vaqt omilida, ya’ni institutsional va iqtisodiy transformatsiya bosqichlari kesimida o‘rganish muhim hisoblanadi. Har bir tarixiy bosqichda davlatning ijtimoiy siyosatdagi roli, moliyalashtirish mexanizmlari, xizmatlar ko‘rsatish shakllari hamda ularning iqtisodiy samaradorligi turlicha bo‘lgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ijtimoiy xizmatlar aholining hayot sifati va farovonligini oshirishda, shuningdek jamiyatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim institutsional omil hisoblanadi. Ilmiy tadqiqotlarda qayd etilganidek, ijtimoiy xizmatlar inson kapitalini shakllantirish va rivojlantirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi (Schultz, 1961; Becker, 1993). Ular aholining bilim darajasi, sog‘lig‘i, kasbiy mahorati va ijtimoiy faolligini oshirish orqali iqtisodiy o‘rish uchun mustahkam zamin yaratadi (Sen, 1999).

Ilmiy adabiyotlarda ta’lim va sog‘liqni saqlash xizmatlari inson kapitalining bazaviy tarkibiy qismlari sifatida qaraladi (Becker, 1993; Todaro & Smith, 2020). Shu bilan birga, ijtimoiy himoya va rehabilitatsiya xizmatlari aholining ijtimoiy xavf-xatarlarga bardoshlilikini oshirib, mehnat bozorida uzluksiz ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytiradi (OECD, 2018). Bunday yondashuv inson kapitalining sifat jihatdan o‘rishiga va mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qiladi (World Bank, 2020). Ijtimoiy xizmatlar orqali kam ta’minlangan va zaif ijtimoiy guruhlarini qo‘llab-quvvatlash ijtimoiy tengsizlikni kamaytirish va inklyuziv iqtisodiy o‘rishni ta’minlashning muhim mexanizmi sifatida namoyon bo‘ladi (UNDP, 2022). Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy xizmatlarga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantiruvchi strategik investitsiya sifatida qaraladi (Barr, 2012; World Bank, 2019).

O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlar tizimi ijtimoiy yo‘naltirilgan iqtisodiyot modeli asosida shakllanib, davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida rivojlanib kelmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2017). Ayniqsa, “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” doirasida inson kapitalini rivojlantirish davlat siyosatining markaziy masalasi sifatida belgilandi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, 2022).

So‘nggi yillarda ijtimoiy xizmatlarni raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish va xizmatlar qamrovini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda (O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, 2021). Bu jarayonlar inson kapitalining iqtisodiy o‘rishdagi roli ortib borayotganligini tasdiqlaydi (Shodiyeva, 2022).

Shuningdek, O‘zbekiston – 2030 strategiyasida ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirish orqali aholi farovonligini oshirish, kambag‘allikni qisqartirish va barqaror iqtisodiy o‘rishni ta’minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”).

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiy xizmatlarning inson kapitaliga ta’siri va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi funksiyalari bo‘yicha induksiya va deduksiya, makon va zamon, mantiqiy, qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Shu bois, O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini tizimlashtirish inson kapitali rivojlanishining evolyusiyasini, ijtimoiy xizmatlar orqali iqtisodiy o‘rishni ta’minlash mexanizmlarini aniqlash imkonini beradi. Quyidagi jadvalda ijtimoiy xizmatlarning asosiy shakllanish bosqichlari, ularning xronologik davrlari, institutsional xususiyatlari hamda iqtisodiy ahamiyati kompleks tarzda aks ettirilgan.

1-jadval

O‘zbekistonda ijtimoiy xizmatlarning shakllanish bosqichlari

Bosqich	Davri	Asosiy xususiyatlari	Iqtisodiy ahamiyati
I	1917–1991	Markazlashgan, bepul xizmatlar tizimi	Barqaror, ammo past samaradorlik
II	1991–2000	Bozor islohotlari, davlat kafolatlari saqlanishi	Ijtimoiy kafolatlar qisqardi
III	2000–2016	Modernizatsiya, xususiy sektor ishtiroki	Xizmatlar sektori tez o‘rdi
IV	2017–hozir	Raqamli transformatsiya, “Inson qadri uchun” tamoyili	Inson kapitali iqtisodiy o‘rish omiliga aylandi

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi markazlashgan rejali tizimdan bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o'tish, keyinchalik esa raqamli va inson kapitalini ustuvor deb biluvchi modelga evolyusion tarzda o'tish jarayonini aks ettiradi. Ilk bosqichda ijtimoiy xizmatlar barqarorlikni ta'minlagan bo'lsa-da, ularning iqtisodiy samaradorligi past bo'lgan. Ikkinchi bosqichda davlat ijtimoiy majburiyatlarini qayta ko'rib chiqib, bozor mexanizmlariga moslashuv jarayoni boshlangan.

Uchinchi bosqichda ijtimoiy xizmatlar sektorining tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylangan bo'lsa, to'rtinchi bosqichda inson kapitali iqtisodiy taraqqiyotning asosiy omili sifatida qarala boshlandi. Xususan, raqamli texnologiyalarni joriy etish, ijtimoiy xizmatlar qamrovini kengaytirish va ular sifatini oshirish orqali ijtimoiy investitsiyalarning iqtisodiy qaytими sezilarli darajada oshdi. Bu esa ijtimoiy xizmatlarni barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik institut sifatida baholash zarurligini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Yangi O'zbekiston sharoitida ijtimoiy xizmatlarning rivojlanishi yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillari bilan uyg'unlashib, raqamli texnologiyalar asosida xizmatlar sifati va qamrovini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu jarayonlar hududiy barqaror rivojlanish, bandlikni oshirish va aholi farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Xulosa va takliflar. Yuqorida olib borilgan nazariy tahlil va institutsional yondashuvlar, shuningdek, O'zbekistonda ijtimoiy xizmatlar shakllanishi va rivojlanish bosqichlarining ilmiy tahlili shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatlar nafaqat aholining ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish vositasi, balki inson kapitalini rivojlantirish orqali barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ijtimoiy xizmatlar tizimining samaradorligi davlat siyosati, institutsional islohotlar, moliyalashtirish mexanizmlari hamda yashil va innovasion iqtisodiyot tamoyillarining uyg'un qo'llanilishiga bevosita bog'liq ekani aniqlandi. Shu nuqtai nazardan, tadqiqot natijalarini umumlashtirish hamda ijtimoiy xizmatlarni inson kapitaliga yo'naltirilgan strategik resurs sifatida rivojlantirish bo'yicha amaliy xulosa va takliflarni ishlab chiqish dolzarb hisoblanadi. Quyida mazkur tahlillar asosida shakllantirilgan asosiy xulosalar va ilmiy-amaliy takliflar keltiriladi.

1. Ijtimoiy xizmatlar inson kapitalini rivojlantirishning strategik omili sifatida davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim.
2. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida yashil va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish inson kapitali sifatini oshiradi.
3. Ijtimoiy xizmatlarni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini takomillashtirish barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi.
4. Ijtimoiy xizmatlarga yo'naltirilgan investitsiyalarni uzoq muddatli strategik investitsiya sifatida baholash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Becker, G. S. (1993). *Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education*. 3rd ed. Chicago: University of Chicago Press.
2. Schultz, T. W. (1961). Investment in Human Capital. *The American Economic Review*, 51(1), 1–17.
3. Sen, A. (1999). *Development as Freedom*. Oxford: Oxford University Press.
4. World Bank. (2019). *World Development Report 2019: The Changing Nature of Work*. Washington, DC: World Bank.
5. World Bank. (2020). *Human Capital Index 2020 Update*. Washington, DC: World Bank Group.
6. United Nations Development Programme (UNDP). (2022). *Human Development Report 2022*. New York: UNDP.
7. OECD. (2018). *Social Protection and Social Services in Developing Countries*. Paris: OECD Publishing.
8. Barr, N. (2012). *The Economics of the Welfare State*. Oxford: Oxford University Press.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2017). “Harakatlar strategiyasi to'g'risida” (PF-4947). Toshkent.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2022). “2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” (PF-60). Toshkent.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli “Raqamli

- O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni. (2023). “
12. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2021). Aholiga ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. Toshkent.
 13. Shanazarov Farrux. (2026). Ijtimoiy xizmatlar tushunchasining mohiyati va tavsifiga oid nazariy qarashlar. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogik texnologiyalar” ilmiy elektron jurnalining rasmiy shapkasi va UO‘K: 364:330.101, №1, 178–185.
 14. Todaro, M. P., & Smith, S. C. (2020). Economic Development. 13th ed. Harlow: Pearson Education.

<p>Ф.Шаназаров</p> <p>Влияние социальных услуг на человеческий капитал и их функции в социально-экономическом развитии</p> <p>Аннотация. В статье проведён научно-теоретический анализ роли социальных услуг в формировании и развитии человеческого капитала, а также их влияния на устойчивое социально-экономическое развитие. Раскрыто значение образовательных, медицинских, социальных и трудовых услуг в повышении качества человеческого капитала. Систематизированы этапы развития социальных услуг в Узбекистане и обосновано их экономическое значение.</p> <p>Ключевые слова: социальные услуги, человеческий капитал, устойчивое развитие, социальная политика, экономический рост.</p>	<p>F.Shanazarov</p> <p>The impact of social services on human capital and their functions in socio-economic development</p> <p>Abstract. The article provides a scientific and theoretical analysis of the role of social services in the formation and development of human capital and their impact on sustainable socio-economic development. The significance of education, healthcare, social protection, and employment services in improving the quality of human capital is examined. The stages of social service development in Uzbekistan are systematized, and their economic importance is substantiated.</p> <p>Keywords: social services, human capital, sustainable development, social policy, economic growth.</p>
--	--

Mo‘minjon Shavqiddin o‘g‘li Muxiddinov – SamISI mustaqil izlanuvchisi

ERKIN IQTISODIY ZONALARDA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA XORIJ TAJRIBASIDAN FOYDALANISH

Annotasiya. Ushbu maqolada erkin iqtisodiy zonalarda logistika xizmatlarini rivojlantirish masalalari, xususan Yaponiya va Xitoy tajribasi asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda erkin hududlarda logistika infratuzilmasi, multimodal transport tizimi, xizmatlar klasteri va bojxona boshqaruvi mexanizmlari tahlil qilinib, ularning samaradorlikka ta’siri aniqlangan. Solishtirma tahlil va empirik tahlillar orqali milliy sharoitga mos logistika xizmatlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: erkin iqtisodiy zonalar, erkin savdo zonalari, logistika xizmatlari, global ta‘minot zanjiri, multimodal transport, bojxona boshqaruvi, xizmatlar klasteri, qiymat zanjiri, qadoqlash, markirovka, qayta yig‘ish, sotuvdan keyingi servisi.

Kirish. So‘nggi o‘n yilliklarda global iqtisodiyotning raqobatbardoshligi ko‘plab mamlakatlarda erkin iqtisodiy zonalar (EIZ)ni rivojlantirishni strategik vazifa sifatida belgilashga turtki berdi. EIZlarning asosiy maqsadi – ishlab chiqarish va xizmatlar sohasida sarmoyani jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish va milliy iqtisodiyotni global qiymat zanjirlariga integratsiya qilishdir. Shu bilan birga, logistika xizmatlari erkin hududlarning samaradorligini belgilovchi eng muhim mexanizm sifatida e‘tiborga olinadi. Logistika xizmatlarining sifat va samaradorligi erkin hududlarda ishlab chiqarish, tashish, omborlash, qadoqlash va taqsimot jarayonlarining uzluksizligini ta‘minlaydi, kapital va aylanma mablag‘lardan foydalanish samaradorligini oshiradi hamda eksport va ichki savdoga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Xorijiy tajribalar, xususan Yaponiya va Xitoy namunalarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, erkin hududlarda logistika infratuzilmasini rivojlantirishning samarali strategiyalari bir qator institutsional va amaliy tamoyillarga asoslanadi. Masalan, Yaponiya tajribasida port-logistika

ISSN 2091-5187

☞ “SERVIS” ☞

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

06.03.2026 yilda terishga berildi. 19.03.2026 yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0031A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.